

Avezova Rohila Ruzimboyevna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası katta o'qituvchisi

Raximova Nozima G'ayrat qizi,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Boshlang'ich ta'lim" yo 'nalishi 3-bosqich talabasi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINI BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA RASSOMLIK MODEL

UO'K: 371

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_5_9](https://doi.org/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_5_9)

AVEZOVA R.R., RAXIMOVA N.G'. BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINI BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA RASSOMLIK MODEL

Rassomlik modelning boshqaruv kompetentligi belgilashda o'qituvchi tajribasini, pedagogik ko'nikmalarini, boshqaruv tarmoqlarini o'rganish va amalga oshirish mumkin bo'lgan texnikalar va usullarni muayyan qiladi. Maqolada rassomlik modeli boshlang'ich sinf o'qituvchilariga pedagogik tajribaga asoslangan bilim va ko'nikmalarini o'rgatish, talabalarni qiziqarli va samarali o'qitish, shaxsiy rivojlanish va o'qitishning tajribaviy ahamiyatiga ega bo'lishi haqida gap boradi.

Tayanch so'z va tushunchalar: kompetentsiya, 5 ta muhim tashabbus, san'at, rassomlik, boshqaruv, ma'lumot, amaliy, badiiy.

АВЕЗОВА Р.Р., РАХИМОВА Н.Г. МОДЕЛЬ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА В ФОРМИРОВАНИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

В статье рассматривается практическое значение картинной модели в обучении учителей начальной школы знаниям и умениям на основе педагогического опыта, интересном и эффективном обучении учащихся, личностном развитии и преподавании. При определении управленческой компетентности художественной модели определяются опыт педагога, педагогические навыки, методы и приемы, которые можно освоить и реализовать в сфере управления.

Ключевые слова и понятия: компетентность, 5 важных инициатив, искусство, рисунок, управление, информация, практический, художественный.

AVEZOVA R.R., RAKHIMOVA N.G. THE ARTISTIC MODEL IN FORMING THE MANAGEMENT COMPETENCE OF A PRIMARY SCHOOL TEACHER

The article talks about the practical importance of the picture model in teaching elementary school teachers knowledge and skills based on pedagogical experience, interesting and effective teaching of students, personality development and teaching. When determining the management competence of an artistic model, the teacher's experience, pedagogical skills, techniques and methods that can be learned and implemented in management sectors are determined.

Key words and concepts: competence, 5 important initiatives, art, painting, management, information, practical, artistic.

Kirish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ta'lim tizimining asosiy qismidirlar va ular o'quv jarayonini muvaffaqiyatli boshqarishlari juda muhimdir. Ular, o'quvchilarni o'rganish va rivojlantirish jarayonini rassomlik modellari orqali mustahkamlashlari lozim. Boshqaruv kompetentligini shakllantirishda rassomlik modelni o'rganish va amalga oshirish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limda samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari o'quvchilarni san'atga qiziqtirishimiz lozim. Rassomlik modellari va ularning boshqaruvni shakllantirishda o'z vazifalari haqida ma'lumot olish, rassomlik modellarni qanday ishlaydi va ularning qanday natijalarga erishishi mumkinligi haqida tushunchalarini rivojlantirish. Rassomlik modellarning boshqaruvning har xil sohalarida qanday kompetentlikni rivojlantirishga yordam berishi, ularni o'rganish va amal qilishning ko'p tomonlama foydasi katta. "Kompetensiya" so'zi tarjimada "layoqatli", "munosib bo'lmoq" kabi ma'nolarni anglatuvchi lotincha "competere" so'zi asosida hosil bo'lgan¹.

Kompetentlik shaxsiy rivojlanish, ma'naviy rivojlanish va professional rivojlanish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Shaxs o'zining kompetentlik darajasini oshirish uchun o'z faoliyati va bilimni doimiy ravishda rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga urg'u berildi. Shu boisdan 5ta muhim tashabbus loyihasi ishlab chiqildi.

Mavzuning dolzarbligi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida boshqaruv kompetentligi takomillashtirish yetarli o'rganilmaganligi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi va rassom kasblarini bir-biri bilan uyg'unligi, ularni o'xshash

jihatlari hamda farqli jihatlari yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan belgilandi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Boshqaruvning asosiy tamoyillari XIII—XIV asrlarda O'rta Osiyoda Amir Temur bobomiz hukmronligi davrida to'liq shakllandi. Bu davrda yuqori tartib - intizom, ijtimoiy himoya va yuqori darajadagi boshqaruv tizimiga ega kuchli davlat barpo etildi. Boshqaruv tizimining samarali va insonparvarlik asosida tashkil etilishi, uning markazida inson manfaatlari turganligi va davlat siyosatining boshqaruvga ijobiy ta'siri natijasida dunyoda qudratli davlat vujudga keldi. Amir Temur davlat boshqaruv usullari haqida shunday yozadi: «Saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilish lozim: kengash, mashvaratu maslahat, qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushèrlik, ehtiyotkorlik»². Bobomizning fikrlaricha: «Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushèr bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir»³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi⁴.

Birinchi tashabbus musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, ikkinchi tashabbus jismoniy chiniqtirish, sport sohasida, uchinchi tashabbus kompyuter texnologiyalari, to'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashdir.

Pedagogning mahorati shaxsni har tomonlama yuksaltirishi, insonparvarlik tuyg'usini singdirishi, uning qiziqishlarini e'tiborga olishi, shaxsga o'z maqsadi tomon yo'nalish berish-

² Amir Temur yigitlari: T'uplam. Tuзуvchilar: Б.Ахмедов, А.Аминов. – Т.: Навр'уз, 1992. – Б. 75.

³ Amir Temur yigitlari: T'uplam. Tuзуvchilar: Б.Ахмедов, А.Аминов. – Т.: Навр'уз, 1992. – Б. 75.

⁴ Shavkat Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. "Harbiy – vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish-dolzarb vazifamizdir". – Т.: O'zbekiston, NMIU, 2020. – 141 b.

¹ Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma): – Pedagogika va psixologiya. – Т.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. – 80 bet

dan iborat. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi muhim ro'l o'ynaydi. Bunga uning muloqatga tez kirishib ketishi, xushmuomala bo'lishi, diqqatli bo'lishi, uzoqni ko'ra bilishi va shunga o'xshash qobiliyatlari kiradi¹.

San'atga oshno etish o'z navbatida nazariy va amaliy jihatlarini o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan bu qismda yoshlarimizni amaliy san'atning nazariy va amaliy jihatlarini bilishga va ularni mazkur sohaga qiziqtirib, malakali mutaxassis bo'lishlari uchun xizmat qiladi. San'atning o'ziga xos xususiyatlari va turlari haqida so'z boradi. San'atning amaliy va badiiy turlari haqida qiziqarli ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin².

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshqaruv kompetentligini shakllantirish usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining

boshqaruv kompetentsiyalarini takomillashtirish jarayonlari deb belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent Kimyo xalqaro universitetining 206 nafar boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar jalb qilindi (bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari).

Muhokama va natija.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining boshqaruv kompetentligini takomillashtirish uchun rassomlik modelini rivojlantirish muhimdir. Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol chunki, aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. O'qituvchi o'z sohasi bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lishi lozimdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchi boshqaruv kompetentligida pedagogning qobiliyati va uning mahorati katta rol o'ynaydi. Pedagogik mahorat bu- o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarni o'z maqsadlari tomon yo'naltirish,

ularni dunyoqarashini kengaytirish, jamiyat uchun kerakli kadr qilib tarbiyalashdan iboratdir. Pedagogning qobiliyatiga iste'dod, layoqad va zehn, aql bilish ish ko'rishi, diqqatli bo'lishi kiradi.

Avvalambor biz, o'qituvchi boshqaruv kompetentligiga rassomlik modelini olgan ekanmiz. Biz bunda rassomlik kasbi va o'qituvchilik kasblari bilan bog'liq jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Rassomlik san'ati - tasviriy san'at turi hisoblanadi. Qanday xomashyodan va qanday ishlanishiga qarab rangtasvir va grafikaga ajratiladi. Rangtasvirda rang muhim o'rin egallaydi va uning xarakterli tomonlarini belgilaydi. Grafikada asosan chiziq, oq-qora bo'yoq dog'lari asosiy bo'lib, rang ikkinchi darajali o'rin tutadi, ko'p hollarda shartli, ramziy ma'noda asarning g'oyaviy emotsional tomonini kuchaytirish maqsadida uni qo'llash mumkin³.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisini boshqaruv kompetentligini shakllantirishda rassomlik san'ati rolini olganimiz sababi shundaki, rassom avvalambor qanday asar yaratmasin uni uzoqdan ko'ra oladi. Asarni chizishni boshlashdan oldin unga diqqat bilan nazar solib, tasavvur qilib, uning mayda qismlarigacha o'rganadi va tasvirlaydi.

Rassom bilan boshlang'ich sinf o'qituvchilik kasblaridagi o'xshashlik jihatlarini quyidagilar:

1. Ijodkorlik. Rassom ham, boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham ijodiy faoliyatni tashkil qiladi. Ikkalasi ham yangi g'oyalarni yaratish va talabalarga yangicha yondashuvlarni o'rgatish uchun ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

2. Tushunish va ifodalash yo'llari. Rassom asarlarini yaratishda o'z hissiyotlarini, fikrlarini va dunyoqarashini ifodalaydi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi esa talabalarining dunyoqarashini, tushuncha va bilimlarini rivojlantiradi.

3. Maqsadga yo'naltirilganlik jihati. Har ikkisi ham o'z ishlarida maqsadga erishish uchun o'z bilim va ko'nikmalarini turli xil vaziyatlarda samarali tarzda amalga oshiradi.

4. Kuzatuvchanlik. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi ham bolalarni diqqat bilan kuzatishi, har bir bolaning o'ziga xos xarakter xususiyat-

¹ Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / O'.M.Asqarova, M.Xayitboyev, M.S.Nishonov. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «Talqin», 2008 - 288 b.

² Amaliy san'at turlari [Matn]: o'quv qo'llanma / Viloyat To'xsanova. - Buxoro : «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, 2020. - 220 c.

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Rassomlik_san%CA%BCati
ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2025, 5 (150)

larini o'rganishi lozim. Shu bolalarni o'z qiziqishi bo'yicha yo'nalish berishi kerak.

Bu model o'qituvchilarga sinflarda olib boriladigan o'quv jarayonlarini, mashg'ulotlarni va darslarni rassomlik orqali tasvirlashda yordam beradi. Rassomlik modeli o'qituvchilarga o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun murakkab ma'lumotlarni illustratsiyalar yordamida tasvirlashni o'rgatadi.

O'qituvchi dars rejalarini oddiy matn shaklda emas, balki grafikalar, diagrammalar yoki rasmlar orqali mavzuni tushuntirishi bu maqsadlidir. Masalan, Tabiatshunoslik darsida mavzuni tushuntirishda daraxtning hayotiy shaklini oddiy matn o'rniga bosqichma-bosqich rasm orqali bolaga tushuntirish o'quvchilarni darsga qiziqishini va o'zlashtirishini yana orttiradi.

Matematika fanidagi mavzularni tushuntirishda bolalarga qiziqarli bo'lishi uchun sonlarni rasmlar ya'ni qushlar, avtomobillar orqali tushuntirish yanada samaraliroqdir. Rassomlik san'ati o'quvchilarga matematika, ilmiy va ijtimoiy fanlarni o'rgatishda ko'maklashadi. Diagrammalar, grafiklar, va ko'rinishlar orqali ko'rsatuvchi materiallar tuzilishi, o'quvchilarning ko'nikmalarini oshirish hamda ma'lumotlarni o'rganishlarini oshirishga yordam beradi.

Ona tili darslarida esa so'zlarni to'g'ri yozish uchun harflarni rangli animatsiyalar orqali taqdim etish bolani yanada qiziqarli hamda samarali bo'ladi.

Tarbiya fanidan dars o'tayotganimizda, o'quvchilarga rasm shaklda muammoli vaziyatlarni taqdim etish va ularni yechimini ham rasm shaklda so'rash muhimdir.

O'qish savodxonligida esa tarixiy shaxslarning portretlarini chizish va ular haqida hikoya tayyorlash orqali ta'limni sifatiga erishamiz. Bunda o'quvchilarning nafaqat tarixiy bilimlarni mustahkamlanadi balki, ularni vizual fikrlashi ham rivojlanadi. Buning uchun o'qituvchi rassomdek fikrlashi, tasavvur qilishi, dunyoni ranglar jilosidek ko'rishi bu muhimdir. Ayniqsa boshqaruv jarayonida. Buning uchun amaliy va badiiy (nafis) turlarini bilishi muhimdir. Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, libos yaratish kabi sohalar kirs, badiiy san'at turlariga rassomlik, musiqa,

haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub¹. Boshqaruvchi o'qituvchi badiiy(nafis) san'at va uning turlarini bilishi muhimdir.

Teatr (yunoncha θέατρον – "tomoshagoh") cheklangan joyda bir yoki bir necha aktyorlar ijro etadigan sahna ko'rinishi orqali tomoshabinga fikr uzatuvchi san'at janridir².

Musiqa (qadimgi yunoncha: μουσική – "muzalar san'ati") – inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi³.

Haykaltaroshlik san'ati, insonlarning tasavvurlarini va xayollarni ifodalashning qudrati va qiziqishini ko'rsatadi. Tasvir ob'yekti asosan inson; shuningdek, boshqa jonzotlar hayvon, tabiat va narsalar.

Tasviriy san'at – rang-tasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turidir. Voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi⁴.

Har bir inson uchun estetik zavq-shavq manbai, go'zallik baxsh etuvchi, odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakllantiruvchi jihat bu - san'atdir. U tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, yomonlikdan nafratlanishga chorlaydi. Rassomlik san'ati o'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini oshiradi va ularni o'zlashtirishga yo'l ochadi.

Rassomlik modeli orqali o'quvchilarga turli xalq san'atlari va rassomlik usullari bilan tanishish, ularning ijodiy sozlamalari va ifodalarini baholash, shuningdek o'zlarining rivojlanayotgan rassomlik ko'nikmalarini o'rganish imkoniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rassomlik san'ati rolini boshlang'ich sinf o'qituvchisini boshqaruv kompetentligini shakllantirishda ifodalovchi asosiy xususiyatlar hisoblanadi. Bu, o'quvchilarning ma'lumotlarini oshirish va rivojlantirish, ijodiy fikrlarni yaxshilash va qiziqishlarini o'rnatish, shuningdek kritik fikrlash va

¹ <https://uzgeouniver.uz/ru/news/sanatgozallik>

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Teatr>

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Musiqa>

⁴ https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasviriy_san%CA%BCat

texnologik rivojlanishlarini ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa.

1. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining boshqaruv kompetentligini shakllantirishda rassomlik modeli innovatsion yondashuvlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu model o'qituvchining pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini vizual jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

2. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rassomlik modelidan foydalanish o'qituvchilarning muloqot, muammolarni hal qilish, estetik, badiiy, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy salohiyati rivojlantiradi, talabalarni ijodiy hamkorlikka chaqiradi. Rassomlik modeli ta'lim jarayoniga integratsiyasi qilish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga samarali yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma): – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet/
2. Mirziyayev Sh. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. "Harbiy – vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish-dolzarb vazifamizdir". – T: O'zbekiston. NMIU, 2020l. 141 b.
3. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/ O'.M.Asqarova, M.Xayitboyev, M.S.Nishonov. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «Talqin», 2008 - 288 b.
4. Amaliy san'at turlari [Matn] : o'quv qo'llanma / Viloyat To'xsanova. - Buxoro : «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, 2020. - 220 s.
5. Амир Темур ўғитлари: Тўплам. Тузувчилар: Б.Ахмедов, А.Аминов. – Т.: Наврўз, 1992. – Б. 75.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Rassomlik_san%CA%BCati
7. <https://uzgeouniver.uz/ru/news/sanatgozallik>
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Teatr>
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Musiqqa>
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasviriy_san%CA%BCat